XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 4 - yanvar VI-52-1-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Muzrabot tumani mahaliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari **80,249 mlrd. so‘m** harajatlari **190,274 mlrd. so‘m** prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **110,025 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun mahalliy byudjeti daromadlar prognozi ko‘rsatkichi **1-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman byudjetidan 2023-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan harajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va harajatlarining prognozi **4-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertalar miqdori **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

8. 2023-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **1,8 mlrd. so‘m** miqdorida belgilansin.

9. 2023-yil tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **697,5 mln so‘m 6-ilovaga** muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan 2023-yil xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetni boshqarishda xususan mahalliy byudjet harajatlarini xududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023- yilda quyidagi soliq turlari:

Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

sement va ohaktoshdan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yig‘imlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stantsiyalaridan boshqa to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi;

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning chakana sotuvi uchun aktsiz solig‘i;

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘idan tushumlar

tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Ismailov, Moliya bo‘limi mudiri I.Kushakov, tuman Davlat soliq inspektsiyasi (N.Nazarov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar harajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Davlat soliq inspektsiyasi (N.Nazarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13.Tuman Davlat soliq inspektsiyasi (N.Nazarov), Kadastr agentligi tuman bo‘linmasi (Sh.Murodov) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman Davlat soliq inspektsiyasi (N.Nazarov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspektsiyasining janubiy mintaqaviy inspektsiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Muzrabot tuman bo‘limi boshlig‘i U.Sattorov tuman davlat soliq inspektsiyasi boshlig‘i N.Nazarov bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (Sh.Norqobilov), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning er va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet harajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18. Tuman hokimligi:

tuman byudjeti jami harajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sul etib belgilansin;

19. Mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

20. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (J.Abdurasulov), “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yo‘ldashev)larga Qarorda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

22. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **T.Tangirov**

Xalq deputatlari Muzrabot
tuman Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-52-1-8-115-K/23-son
qaroriga
1-ilova

2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
Mahalliy soliq va tushumlar		**80 249 039,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	475 000,0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar (aylanmadan olinadigan soliq)	3 275 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23 926 500,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aktsiz solig‘i, jami	24 116 539,0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	5 524 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 190 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 280 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	3 982 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 040 000,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	625 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	630 000,0
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to‘lovi	200 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Yig‘imlar	1 885 000,0
17	Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar	100 000,0
II	**Viloyat byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar**	**110 025 549**
Daromadlar hammasi		**190 247 588**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-52-1-8-115-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023 йил учун Музработ тумани бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган парламент ажратмаларининг чекланган миқдорлари

минг сўмда

№	Кўрсаткичлар	миқдори	ГЛАВА	Халқ таълими		Мактабгача таълим		Соғлиқни сақлаш		Маданият		Спорт		Фан		Бошқарув		Ўзини-ўзи бошқариш		Суд ҳужалиги		Ободонлаш-тириш		Нафақа		Кўмиктириш		Фуқаролар ташаббуси жамғармаси		Заҳира жамғармаси		Ҳоким ёрдамчилари шифратизими		Ветеринария		Фермер хўжаликлари бухг		Йўл таъмирлаш	
				Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма	Тегишли раздел подраздел	Сумма
Харажатлар миқдори, Жами		**190 274 588,0**																																			
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	**190 274 588,0**																																			
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар																																				
	Туман ва шаҳар маҳаллий бюджетларига трансфертлар																																				
1.	**Халқ таълими бошқармасининг ташкилотларига**	**8 160 081,0**	**075**	7092100 7096100 7096300																																			
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	8 160 081,0			8 160 081																																
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
2.	**Мактабгача таълим бошқармасининг ташкилотларига**	**8 473 399,0**	**251**			7091100 7098602																																	
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	8 473 399,0					8 473 399																														
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
3.	**Соғлиқни сақлаш бошқармасининг ташкилотларига**	**61 674 264,0**	**054**					7072110 7072120 7072130 7073101 7073102 7074110 7074200																																	
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	61 674 264,0							61 674 264																														
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
4.	**Ёшлар агентлигини сақлаш харажатлари**	**3 765 821,0**	**225**													7049996																						
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	3 765 821,0															3765821																					
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
5.	**Туман маданият бўлими**	**3 375 200,0**	**056**	7096600						7082310 7083100 7089400						7089200																							
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	3 375 200,0			2558875						607890						208435																					
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
6.	**Туман спортни ривожлантириш бўлими**	**1 884 097,0**	**135**									7083610																									
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	1 884 097,0											1884097																								
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
7.	**Қишлоқ хўжалиги бошқармасининг ташкилотларига**	**1 122 596,0**	**082**													7042960																				7042116		
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	1 122 596,0															520845																				601751	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
8	**Ирригация тизимидаги ташкилотларига**	**2 825 634,0**	**170**																	7042402																	
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	2 825 634,0																			2 825 634																
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
9	**Ветеринария бошқармасининг ташкилотларига**	**1 501 377,0**	**250**																																	7042133 7042136		
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	1 501 377,0																																		1501377		
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
10	**Ободонлаштириш бошқармасига**	**0,0**																																			
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	0,0	110																																		
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
12	**Меҳнат бош бошқармасининг ташкилотлари**	**901 866,0**	**141**													7109120																						
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	901 866,0															901866																					
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
13	**Молия бош бошқармасининг ташкилотларига**	**1 630 120,0**	**092**													7011312																						
	шу жумладан:																																				
	жорий харажатлар	1 630 120,0															1630120																					
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																			
14	**Давлат ҳокимият органлари**	**90 748 327,0**	**018**													7011204 7011205 7085400						7042990 7062901 7062902 7064100 7064200 7065100 7065200 7065300 7065400		7103100 7103300 7109300		7109401		7019909		7011503		7049997						7045204	

	шу жумладан:																																										
	жорий харажатлар	90 748 327,0															8771654						6929478		60054607		74708		8975216		1796068		1146596							3000000
	заҳира жамғармаси	0,0																																									
15	**Халқ депутатлари Кенгаши котибияти**	**231 262,0**	**340**													7011903																											
	шу жумладан:																																									
	жорий харажатлар	231 262,0															231262																										
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																									
16	**Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш бўлими**	**3 500 727,0**	**259**													7011906		7011401 7011402																										
	шу жумладан:																																									
	жорий харажатлар	3 500 727,0															600238		2900489																								
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																									
19	**Ахборот кутубхона маркази харажатларига**	**479 817,0**	**134**												7083102																												
	шу жумладан:																																									
	жорий харажатлар	479 817,0														479817																											
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0																																									

Xalq deputatlari Muzrabot tuman Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-52-1-8-115-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Muzrabot tumani mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2023-yil uchun

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq *	Yuridik shaxslar yer solig‘i **	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to‘lovlari
1	Muzrabot tumani	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100

Izoh:

* Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq viloyat byudjtega yo‘naltiriladi.

** Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik yer solig‘i viloyat byudjtega yo‘naltiriladi.

*** Yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Muzrabot
tuman Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-52-1-8-115-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Muzrabot tuman mahalliy byudjetlarining 2023-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**190 274 588,0**	**190 274 588,0**
Muzrabot tuman	190 274 588,0	190 274 588,0

Xalq deputatlari Muzrabot
tuman Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-52-1-8-115-K/23-son
qaroriga
5-ilova

Muzrabot tuman mahalliy byudjetining 2023-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi** **transfert miqdori**
JAMI	**110 025 549,0**
Muzrabot tuman	110 025 549,0

Xalq deputatlari Muzrabot
tuman Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-52-1-8-115-K/23-son
qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 2023-yil uchun

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**697 510,0**
1	Muzrabot tumani	**697 510,0**